

ЗНАЧЕНИЕ ПРОЕКТНОГО МЕТОДА В ЛИЧНОСТНО-ОРИЕНТИРОВАННОМ ОБРАЗОВАНИИ

М. Оламова

преподаватель

Ферганский государственный университет

Фергана, Узбекистан

Д. Мамурова

студентка

Ташкентский государственный педагогический университет

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: личность, проект, интерес, интеллект, технология, мотивация, компонент, индивидуальность, метод, “идеальный человек”.

Аннотация: В статье рассказывается о методе проекта, эффекте его применения и преимуществах обучения детей с помощью него.

KIRISH

Shaxs – pedagogikada ijtimoiy munosabatlar mahsuli sifatida qaraladi. Maktabgacha yosh davri bolani shaxs sifatida shakllanishida muhim o‘rinni egallaydi. Bolaning ijtimoiylashuv jarayoni boshlanadi. O‘zini jamoada shakllantiradi va unda o‘z o‘rnini topishga harakat qilib boradi. Shu bois bugungi kunda ta’lim-tarbiya jarayoniga bola shaxsiyati, uning fe’l-atvori va individual xususiyatlariga tayanib yondashilmoqda. Har bir pedagogik texnologiya, har bir yangi bilim bolalar yosh xususiyatlarini hisobga ilgan holda tatbiq qilinmoqda. An’anaviy tushuntirish, o‘rgatish usullaridan farqli ravishda bolalar qiziqish va intilishlariga moslashgan tarzda yangi pedagogik usullar asosida ta’lim faoliyatlari yo‘lga qo‘yilmoqda.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim asoslariga tayangan holda rivojlantirishga katta e’tibor berilmoqda. Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar asosidagi ta’lim-tarbiya tizimi markazida bola shaxsi turib, uning rivojlanishi va tabiiy salohiyatini tatbiq etish uchun qulay, bexatar va nizosiz sharoitlar yaratilishi ko‘zda tutiladi. Texnologiyalar bolani individualligini yuzaga chiqarish imkonini beradi va ijobiy natija beradi. Jumladan, “Ixtiroli muammolarni yechish nazariyasi”, “M.Montessori texnologiyasi”, “Loyihalar usuli” (pedagogik tizim majmui) maktabgacha ta’lim jarayoniga kirib keldi va ular amaliyotda muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda.

ASOSIY QISM

Loyihaga asoslangan o‘rganish usuli orqali bola shaxsini rivojlantirishning bir qadar ustuvor jihatlari haqida so‘z yuritimiz. Loyiha metodi – ta’lim olishga arziydigan mavzunu chuqur tadqiqot qilish. Odatda tadqiqot kichik guruh tomonidan, butun guruh tomonidan yoki yakka bola tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Loyihaning e’tiborli tomoni shundaki, u

bolalar, tarbiyachilar tomonidan ko'tarilgan savollarga javob topish kabi ilmiy izlanishlarga yo'l ochadi. Loyihaning maqsadi tarbiyachi bergan savollarga javob topish emas, balki kengroq o'rganishdir.

Loyihaning qiziqarli bo'lishi tarbiyachining topqirligi va ijodkorligiga bog'liq. U qanchalik bolalar olamiga yaqin bo'lsa shunchalik bolalar diqqatini o'ziga jalb etadi. Misol tariqasida loyiha usulining bir ko'rinishiga to'xtalsak: tarbiyachi guruhga ko'rinadigan joyga vatman qog'oz iladi va qo'lida marker bilan bolalarga murojaat qiladi. Bolalar keling birgalikda ajoyib bog' loyihasini tuzamiz. Bog'imiz qanday ko'rinishda bo'lishini xohlardingiz?, U yerda qaysi qahramonlar maketini bo'lishini xohlaysiz?, Yana qanday o'yingoh qurishni istardingi? kabi savollardan foydalanish mumkin. Tarbiyachi bolalar takliflarini vatmandga chizadi va birgalikda bog' strukturasi tayyorlaydi. O'zining shaxsiy loyihasini tuzish har bir bola uchun o'zgacha zavq beradi. Bu orqali esa ularda tafakkur rivojlanadi, yangi bilimlarni o'zlashtirish jarayoni vujudga keladi. Ba'zi bolalar o'zi uchun noma'lum sifatlarni o'zlashtiradi. Qolaversa, bu metod orqali boladagi ichki imkoniyatlarni ham yuzaga chiqarish, undagi iste'dodga baho berish mumkin. Dastur asosida tarbiyachi bolalarda hamkorlikda ishlash bilan birga shaxsiy yo'nalganlikni tarkib toptiradi. Bola ruhlanib o'zining o'yin faoliyatiga loyihaviy tus bera boshlaydi.

Bola shaxsini shakllantirishda qanday metod bo'lmasin uning yosh xususiyatlari e'tiborga olinadi. Agarda ta'sir mexanizmi uning yosh xususiyatlariga zid bo'lsa, aks natija berishi mumkin. Kichik yoshdagi bolalar tinglashdan ko'ra so'zlashni yoqtirsalar, kattaroq yoshdagi bolalar savollariga javob kutadilar. Loyihalashdagi afzallik esa shundaki, bola kimningdir istagi, buyurtmasiga ko'ra emas, o'z imkoniyatlari, salohiyati, tabiati xususiyatlariga ko'ra harakatlanadi.

Shaxsga yo'nalganlik markazida bola – ta'limning markaziy shaxsi bo'lib, uning "Rivojlanish"i, "Erkinlik"i, "Mustaqillik"i, "Ijod"i, "O'ziga xoslik"i kalit so'zlar hisoblanadi. Shaxslikka yo'naltirilganlikning ta'lim texnologiyalariga nisbatan qo'llaniladigan belgilari:

- Bolaning shaxsiy, intellektual, kasbiy rivojlanish maqsadlarining ustunligi;
- Uning yutuq va muvaffaqiyatlari motivatsiyasi, individual rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilganligiga urg'u berish;
- O'zligini shakllantirish, o'z-o'zini boshqarishga urg'u berish;
- Ta'lim jarayoni ishtirokchilarining o'zaro sheriklik harakatlari;
- Bolalarga tanlash erkinligi va ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilariga qabul qilingan qaror uchun shaxsiy mas'uliyat yuklash;

- Ta'limiy vaziyatlar va voqe'alarni o'zidan o'tkazish hamda hissiy munosabatlarning mavjudligi.

Garchi loyihalar usuli ilgaridan ma'lum bo'lsada bu kungacha tarbiyachilar tomonidan u darajada e'tibor berilmadi. Ammo uning afzalliklari va o'ziga xos tomonlari ko'p ekanligi tasdig'ini topmoqda. Bolalarda shaxsiy sifatlarni tarbiyalashda muhim ahamiyatini saqlamoqda. Shuningdek, tarbiyachi ijodkorlik sifatlariga urg'u bermoqda. Chunki tarbiyachi yangi mavzu loyihalarini tanlaydi, uni amalga oshirish ketma-ketliklarini belgilaydi. Shu jarayonda u o'z ustida ishlaydi va malakalarini oshirib boradi.

Loyihalar usulidan har bir faoliyat turlarida foydalanish mumkin. Ochiq havodagi o'yinlarda ham bolalar o'zlarining loyiha ishlarini tayyorlaydilar va bu ularda ko'tarinki kayfiyatni vujudga keltiradi. Bugungi kunda bolalarga qo'yilayotgan davlat talablarida ham kreativ g'oyalarga yo'naltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarning shaxsiy, kichik bo'lsada o'z loyahasiga egaligi, ularni topqirlikka yetaklaydi. Yangiliklar yaratishga nisbatan motivatsiya hosil qiladi. Loyiha bolalar o'zlari to'g'ridan-to'g'ri izlanish qilishlari mumkin bo'lgan real voqea-hodisaga asoslanadi. Bir qarashda kichik yoshdagi bolalarga bu murakkab sanalishi mumkin, ammo shiddatli bugungi zamon farzandlari har jabhada ilg'or. Bugungi bolalar zamonaviy fan yutuqlaridan foydalanish ko'nikmasini tez va sifatli egallab borihmoqda. Shu bois ularda kichik yoshdan boshlab tashabbus, mas'uliyat, qarorlar qabul qilish, tanlov tushunchalarini shakllantirib borilsa, kelajakda mustaqil fikrga ega, o'ziga nisbatan qat'iy ishinchga ega barkamol shaxs tarbiyalanadi.

XULOSA

Kichik yoshdagi bolalarda tadqiqot ishlari tarbiyachidan ma'lumotni va bilimni talab etadi. Tarbiyachi loyiha ishi mavzularini tanlashda quyidagilarga e'tibor qaratishi muhim:

Birinchidan, mavzu bolalarning kundalik hayotiga, tajribalariga yaqin va mos kelishi zarur. ushbu mavzu haqida gapirilganda kamida 5-6 bola mazu haqida tushunchaga ega bo'lishi kerak;

Ikkinchidan, umumiy savodxonlik ko'nikmalariga qo'shimcha ravishda, mavzu bolaning barcha rivojlanish sohalarini ichida birlashtira olishi kerak;

Uchinchidan, mavzu juda boy bo'lsin va bolalar uni ko'proq vaqt davomida tadqiqot qilsin;

To'rtinchidan, mavzu nafaqat maktabgacha ta'lim tashkilotida balki uyda ham davom ettirish mumkin bo'lsin. Masalan, mahalliy hasharotlar kolleksiyasini tuzish kabi...

Bolalar har doim o'zini ustida ishlashdan qochishmaydi, hamisha nima bilandir shug'ullanish ularga yoqimli. Faqatgina yo'naltira bilish kattalar zimmasida. Qanchalik bolani

o‘z qiziqishlari asosida yo‘naltirsak, unda tobora kuchli intellekt shakllanadi va bu kelajakda insoniyat uchun daxldor kashfiyot va loyihalar muallifi bo‘lishida turtki beradi. Xususan, barkamol shaxs haqida so‘z yuritib, rus olimi I.P.Podlasiy quyidagicha fikr bildirgan edi: “Barkamol inson – tarbiyaning oliy maqsadi, unga intilib yashaydigan ideal. Bu ideal tarbiyaning buyukligiga ishoncha asosida paydo bo‘lgan. Jamiyatning maqsadi barcha insonlarni har tomonlama rivojlantirishdan iborat”. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim komponentlari bolada barkamollik xislatlarini ravnaq topishida muhim ahamiyatini namoyon etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. F.Vahobova, Sh.Nabixonova, G.Yo‘ldosheva, Z.Rahimova, N.Demina. “Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim”. Toshkent, 2009, 14-bet.
2. Internet saytlari: [https:// arxiv.uz](https://arxiv.uz)
3. D.Kenjayeveva. “Barkamol shaxs tarbiyasi asoslari”. T, 2010, 67-bet
4. Юлдашева, Д. М., Асқарова, Д., & Зохидова, М. (2021). Ўзбек болалар нутқига доир матнларда лакуна. *Academic research in educational sciences*, 2(2).
5. Ilhom, S. (2022). EARLY STUDENTS IN MATHEMATICS FORMATION OF FUNDAMENTALS OF ECONOMIC KNOWLEDGE.
6. Soliev, I. S. (2020). FACTORS OF FORMATION OF INFORMATION COMPETENCE OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS. In *Наука и просвещение: актуальные вопросы, достижения и инновации* (pp. 218-220).
7. Sobirjonovich, S. I. (2022). Child Thinking and Problem Solving. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*, 4, 111-115.
8. Sobirjonovich, S. I. (2021). Teaching Preschool Children in a Second Language. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 406-411.
9. Sobirjonovich, S. I. (2021). Professionalism as a Factor in the Development of the Pedagogical Activity of the Future Teacher. *Journal of Ethics and Diversity in International Communication*, 1(7), 76-81.
10. Sobirjonovich, S. I. (2021). Speech Education for Children from 1 To 3 Years of Age. *International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology*, 1(7), 135-141.
11. Sobirjonovich, S. I. (2021). Didactic Interaction as Whole Integral Education. *International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences*, 1(7), 80-83.
12. Soliyev Ilhomjon Sobirjonovich. (2022). Child Thinking and Problem Solving. EUROPEAN MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF MODERN SCIENCE, (4) 111-115.

13. Soliyev Ilhomjon Sobirjonovich. (2022). Features of the Development of Social Intelligence in Preschool Children. EUROPEAN MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF MODERN SCIENCE, (6) 83-87.

14. Soliyev Ilhomjon Sobirjonovich. (2022). The Concept of Connected Speech and its Significance for the Development of Preschool Children. Spanish Journal of Innovation and INTEGRITY. 05. 518-523.

15. Soliyev Ilhomjon Sobirjonovich. (2022). Heuristic Activity in the Educational Process of the Institutions of Preschool Education. Spanish Journal of Innovation and INTEGRITY, 05. 529-534.

16. Матмусаева, М. А. (2017). Оилада болаларни меҳнатга ўргатиш. *Молодой ученый*, (4-2), 23-24.

17. Матмусаева, М. А. (2016). ТАЛАБАЛАР ПОРТФОЛИОЛАРИНИ ТАЙЁРЛАШ ШАРОИТЛАРИ. In *Сборники конференций НИЦ Социосфера* (No. 9, pp. 129-131). Vedecko vydavatel'ske centrum Sociosfera-CZ sro.

18. Матмусаева, М. А. (2016). ТАЛАБАЛАРНИНГ ЎҚУВ ФАОЛИЯТЛАРИНИ НАЗОРАТ ҚИЛИШНИНГ ИННОВАЦИОН ХАРАКТЕРИ. In *Сборники конференций НИЦ Социосфера* (No. 9, pp. 127-128). Vedecko vydavatel'ske centrum Sociosfera-CZ sro.

19. Ergashevna, K. M. (2021). Factors for improving the quality of education in primary schools of non-state educational institutions. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(9), 792-796.

20. Khallokoval, M. E. (2018). Important Aspects of Establishing Non-State Educational Institutions. *Eastern European Scientific Journal*, (2).

21. Халлокова, М. (2022). Нодавлат таълим муассасаларида таълим тизимини модернизациялаш. *Общество и инновации*, 3(1), 151-157.

22. Khallokoval, M. E. (2021). CRITERIA FOR NON-EDUCATIONAL INSTITUTIONS TO IMPROVE THE QUALITY OF EDUCATION. *World Bulletin of Social Sciences*, 5, 52-55.

23. Karimov, U. U., & Karimova, G. Y. (2021). THE IMPORTANCE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN ACHIEVING EDUCATIONAL EFFECTIVENESS. *Журнал естественных наук*, 1(1).

24. Каримов, Ў., Каримова, Г., & Каримов, Ў. (2021). ИЛМ-ФАН ВА ТАЪЛИМ СОҲАСИДАГИ АХБОРОТЛАШУВ. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 1(1), 103-110.

25. Yuldashev, I. A. (2020). Pedagogical Bases Of Formation Of Social Activity In Pedagogical Sciences. *Теория и практика современной науки*, (5), 67-69.

26. Yuldashev, I., & Toshboltaeva, N. I. (2020). Analysis Of Personality Traits In Athlete Activities. In *Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества* (pp. 72-74).

27. Abdumalikov, A. A. (2019). ENVIRONMENTAL ECOLOGICAL POLICY IN UZBEKISTAN AND NECESSITY OF FORMATION OF RATIONAL COMMUNICATION TO NATURE. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(9), 94-101.

28. Khakimovich, K. N., & Abdullazhanovich, A. A. (2021). JOINT INTERNATIONAL EDUCATIONAL PROGRAM AS AN IMPORTANT FORM OF TRAINING BACHELORS IN THE CONDITIONS OF A NEW STAGE OF DEVELOPMENT.

29. Абдумаликов, А. А. (2017). ФОРМИРОВАНИЕ ИНФОРМАЦИОННОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЕЖИ. *Theoretical & Applied Science*, (11), 277-280.

30. Abdumalikov, A. A. (2017). FORMATION OF YOUTH INFORMATION CULTURE. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 11(55), 277-280.

31. Абдумаликов, А. А. (2020). VIOLATION OF CONTRADICTIONS BETWEEN SOCIETY AND NATURE AS A GLOBAL CIVILIZATION. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 2(4), 218-224.

32. Karimov, N. (2022). IMPORTANCE OF STUDYING AND PROMOTING ORIENTAL CULTURE AND HERITAGE. *Oriental Journal of History, Politics and Law*, 2(03), 28-33.

33. Karimov, N. (2022). THE CENTRAL ASIAN RENAISSANCE OF THE IX-XII CENTURIES IN THE EYES OF FOREIGN RESEARCHERS. *Oriental Journal of Social Sciences*, 2(03), 28-45.

34. Абдумаликов, А. А. (2019). HUMAN AND NATURAL HARMONY IN THE HISTORICAL PROCESS. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(5), 205-209.